



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

XORAZM VILOYATIDA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR ORASIDA TURMUSHDAGI JAROHATLANISH DARAJASINI O‘RGANISH VA BAHOLASH

Omanova. A. S

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Annotatsiya: Bolalar jarohatlanishi dunyo miqyosida jiddiy muammo bo‘lib, u bolalar o‘limi va nogironligining asosiy sabablaridan biridir. Mazkur ilmiy maqolada maktab yoshidagi bolalar orasidagi turmushdagi jarohatlanishlar Xorazm viloyati misolida o‘rganilib baholangan va shu asosidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jarohat, turmushdagi jarohatlanishlar, ijtimoiy muhofaza tizimi, profilaktika, nogironlik.

Аннотация: Детские травмы являются серьезной глобальной проблемой и одной из ведущих причин смертности и инвалидности среди детей. В данной научной статье рассматриваются и оцениваются бытовые травмы среди школьников на примере Хорезмского региона, а также анализируются полученные данные.

Ключевые слова: травма, бытовые травмы, система социальной защиты, профилактика, инвалидность

Abstract: Childhood injuries are a serious global issue and one of the leading causes of mortality and disability among children. This scientific article examines and evaluates domestic injuries among school-age children based on the example of the Khorezm region and discusses the obtained data.

Keywords: injury, domestic injuries, social protection system, prevention, disability

Muammoning dolzarbligi: Hozirgi kunda bolalar orasida jarohatlar (yiqilish, kuyish, avtohalokatlar, zaharlanishlar) juda keng tarqalgan va har yili ko‘plab shifokorlik aralashuvlarini talab qiladi. Statistika shuni ko‘rsatadiki, baxtsiz hodisalar va jarohatlar sababli har yili yuz minglab bola hayotdan ko‘z yumadi yoki nogiron bo‘lib qoladi. Oqibatda bolalar jarohati tufayli oilalar katta moddiy va ruhiy zarar ko‘rishi mumkin, tibbiy xarajatlar oshadi va bolaning kelajakdagi hayot sifati pasayadi. Bolalar jarohatlanishini kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni keng joriy qilish, ota-onalar va pedagoglar orasida xabardorlikni oshirish, sog‘liqni saqlash tizimida bolalar xavfsizligiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Bu masala nafaqat tibbiyot sohasi, balki ta‘lim, huquq va ijtimoiy muhofaza tizimlari hamkorlikda hal qilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biridir.

Natija va muhokama: Mazkur dolzarb masala yuzasidan Xorazm viloyatining qator hududlari (Urganch shahri, Yangiariq va Qo‘shkopir tumanlari) da yashovchi maktab yoshidagi bolalar (7-17 yosh) tanlab olinib ularda ro‘y beradigan turmushdagi jarohatlanishlar darajasi o‘rganildi. Bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishlarning tarqalishi 5 yil (2016-2020 yillar) davomida tahlil qilinib quyidagi ma‘lumotlar to‘plandi:

O‘rganilgan tadqiqot natijasida bolalarning yoshlari oshib borishi bilan ular orasida jarohatlanishning o‘sib borishini ko‘rish mumkin. Mazkur ko‘rsatkich o‘rtacha o‘rganilgan hududlar bo‘yicha 6-9 yoshdagilarga nisbatan 15-17 yoshdagilarda 2,2 marotabaga, Urganch shahrida 2,9 marotabaga, Qo‘shko‘pir tumanida 2,4 marotabaga va Yangiariq tumanida 1,6 marotabaga oshganligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa bu jarayon o‘g‘il bolalarda sezilarli darajada yuqori ekanligi va bu ularning nisbatan faoliyatlarida serharakatlikning yuqoriligi, sport o‘yinlarida nisbatan ko‘proq ishtiroq qilishlari, nisbatan jismoniy ishlarni ko‘proq bajarishlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. (Jadval 1)

Jadval 1

2016-2020 yillarda bolalarda turmushdagi jarohatlanishlarning o‘rganilgan xududlar va bolalarning yoshlari hamda jinslari bo‘yicha tarqalishi (1000 ta bolaga) ($P \pm m$)



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Tumanlar	6-9 yosh			10-14 yosh			15-17 yosh			Jami		
Urganch shahar	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	Jami	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	Jami	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	Jami	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	Jami
	27,3 ± 1.10	7.7 ± 0.48	14.14 ± 0.51	29.0 ± 0.92	4.90 ± 0.40	17.59 ± 0.52	70.10 ± 1.96	8.97 ± 0.75	40.77 ± 1.10	35.57 ± 0.67	6.11 ± 0.19	21.5 ± 0.37
Qo‘shko‘pir tumani	35.6 ± 0.97	6.4 ± 0.44	21.8 ± 0.56	35.11 ± 0.9	5.13 ± 0.38	21.2 ± 0.53	93.01 ± 2.02	7.2 ± 0.59	50.5 ± 1.08	47.6 ± 0.68	6.09 ± 0.28	27.9 ± 0.38
Yangiariq tumani	30.04 ± 1.14	7.3 ± 0.60	19.2 ± 0.66	36.8 ± 1.18	8.46 ± 0.59	22.6 ± 1.18	98.6 ± 1.78	11.7 ± 0.92	30.6 ± 1.78	36.9 ± 0.76	8.83 ± 0.39	23.3 ± 0.43
Jami	29.85 ± 0.58	6.4 ± 0.29	18.70 ± 0.33	33.45 ± 0.57	5.96 ± 0.27	20.42 ± 0.33	73.21 ± 1.14	9.00 ± 0.42	41.90 ± 0.63	40.94 ± 0.41	6,83 ± 0,18	24.65 ± 0.23

Xorazm viloyatida bolalar orasida turmushdagi jarohatlanish darajasini o‘rganish maqsadida bitta shahar (Urganch sh.), ikkita qishloq (Ko‘shko‘pir va Yangiariq t.) tumanlari tanlab olinib o‘rganilib tahlil etildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan xuddudlarda bolalarda jarohatlanish o‘rganilgan har 1000 ta bolaga $24,65 \pm 0,23$ promillini tashkil qilib o‘g‘il bolalarda jarohatlanish ($40,94 \pm 0,41$) qiz bolalarga nisbatan ($6,83 \pm 0,18$) deyarli 6 barobarga yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich 6-9 yoshdagilarda -4,6 marotabaga, 10-14 yoshdagilarda -5,6 marotabaga va 15-17 yoshdagilarda esa 8,1 marotabaga yuqoriligi aniqlandi. Bu degani bolalarda turmushdagi jarohatlanishning tibbiy-ijtimoiy sababalarini imkoni bo‘lsa alohida ilmiy tahlil etilishini talab qiladi. O‘rganilgan yillar davomida viloyatda jarohatlanish bolalar orasida 2019 yilgacha oshib borish xususiyatiga ega bo‘lib bu ko‘rsatkich ayniqsa o‘g‘il bolalarda yaqqol ko‘zga tashlandi (27%). Ammo qiz bolalarda bu ko‘rsatkich deyarli bir xil darajada saqlanib qolgan. Jarohatlanishlarni bolalarning yosh guruhlari bo‘yicha tahlillari shuni ko‘rsatdiki, bolalarning yoshlari oshishi bilan jarohatlanishlar darajasi ham o‘sib bordi va 6-9 yoshdagilarga nisbatan ($18,70 \pm 0,33$) 15-17 yoshdagilarda ($41,90 \pm 0,63$) 2, 2 barobarga yuqoriligi qayd etildi. 10-14 yoshdagilarda bu ko‘rsatkich $20,42 \pm 0,33$ ga teng ekanligi aniqlandi. E‘tiborli jihati shundaki, barcha yosh guruhlari aynan o‘g‘il bolalarda jarohatlanish o‘rganilgan yillar davomida oshib borishi kuzatildi, ammo qizlarda faqatgina 15-17 yoshdagilarda uning o‘sishi kuzatilsa, qolgan yosh guruhlarda uning tarqalganlik darajasi bir xil holatda o‘zgarishsiz qolganligi aniqlandi.

(Jadval 2)

2016-2020 yillarda viloyat bo‘yicha tanlab o‘rganilgan hududlarda maktab yoshidagi bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishning tarqalishi
(1000 ta bolaga) ($P \pm m$)

Yillar	6-9 yoshlilar			10-14 yoshlilar			15-17 yoshlilar			Jami bolalar		
	Ayol	Erka k	Jami	Ayol	erka k	Jami	Ayol	erka k	jami	Ayol	erka k	Jami



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

2016 yil	6,45 ± 0,64	28,55 ± 1,26	18,26 ± 0,73	6,85 ± 0,64	33,5 5± 1,35	20,6 2± 0,77	6,23 ± 0,78	49,8 8± 2,11	28,6 0± 1,16	6,56 ± 0,39	35,4 2± 0,86	21,6 2± 0,49
2017 yil	7,25 ± 0,69	30,31 ± 1,3	19,46 ± 0,76	6,75 ± 0,63	35,6 1± 1,37	21,7 8± 0,77	8,97 ± 0,95	68,0 0± 2,46	39,3 5± 1,36	7,46 ± 0,42	40,9 9± 0,92	24,9 8± 0,53
2018 yil	7,81 ± 0,71	31,06 ± 1,34	19,92 ± 0,77	6,18 ± 0,59	33,9 7± 1,38	20,9 2± 0,75	9,72 ± 0,99	84,5 8± 2,75	48,0 5± 1,51	7,59 ± 0,42	44,0 5± 0,95	26,6 5± 0,54
2019 yil	7,89 ± 0,71	38,17 ± 1,49	23,58 ± 0,85	6,60 ± 0,6	39,0 1± 1,84	23,7 8± 0,78	9,93 ± 0,99	82,8 1± 2,70	47,3 3± 1,49	7,82 ± 0,42	48,3 5± 0,98	28,9 8± 0,56
2020 yil	2,84 ± 0,42	21,34 ± 1,11	12,40 ± 0,61	3,60 ± 0,45	25,7 0± 1,09	15,3 7± 0,62	10,3 0± 1,02	81,7 1± 2,73	46,6 8± 1,5	4,80 ± 0,33	35,8 8± 0,85	21,0 3± 0,47
Jami	6,44 ± 0,29	29,85 ± 0,58	18,70 ± 0,33	5,96 ± 0,27	33,4 5± 0,57	20,4 2± 0,33	9,00 ± 0,42	73,2 1± 1,14	41,9 0± 0,63	6,83 ± 0,18	40,9 4± 0,41	24,6 5± 0,23

Tahlillar jarayonida e’tiborimizni o‘ziga tortgan holat shu bo‘ldiki, 2019 yilga nisbatan 2020 yilga kelib bolalar orasida viloyatda turmushdagi jarohatlanishlar darajasi barcha ijtimoiy guruhlarda kamayishi kuzatildi. Bu ko‘rsatkich barcha tanlab olib o‘rganilgan xududlarda 2019 yilga nisbatan (48,35±0,98) 2020 yilda (35,88±0,85) 12,50% ga kamayganligini ko‘rish mumkin. Xuddi shu kabi holat 6-9 yoshdagilarda 11,2%ga, 10-14 yoshdagilarda 13,3%ga kamaygan. Ammo bu ko‘rsatkich 15-17 yoshli bolalarda deyarli o‘zgarishsiz qolganligi qayd etildi.

Viloyatda amalga oshirilgan o‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, shahar va qishloq tumanlarida maktab yoshidagi bolalar orasida jarohatlanishlarning tarqalishida ma’lum bir o‘xshashliklar bo‘lsada, ayrim o‘ziga xos farqlar mavjudligi kuzatildi. Urganch shaharida olingan ma’lumotlarni o‘rganilgan uchta hududning o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlillardan shu ma’lum bo‘ldiki, Urganch shahrida bolalarda umumiy jarohatlanish har 1000 ta bolaga 21,5±0,37ni, ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarda -35,57±0,67ni va qiz bolalarda -6,11±0,29ni tashkil etsa, o‘rganilgan barcha majmualarda o‘rtacha mos holda 24,65±0,23; 40,94±0,41 va 6,90±0,18 ga teng ekanligi aniqlandi va shaharda ayniqsa o‘g‘il bolalarda sezilarli darajada kamligi qayd etildi. Huddi shu holat bolalarning yosh guruhlari bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillarda ham kuzatildi. Faqatgina barcha yosh guruhlari qiz bolalar ko‘rsatkichlarda katta farqlar kuzatilmadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, bolalarda jarohatlanishlar qishloq tumanlarida nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi. Agar qishloq tumanlarida ko‘rsatkich jami bolalarda 25,6±0,40ga, o‘g‘il bolalarda 42,25±0,72ga va qizlar orasida 7,46 ga teng bo‘lsa, bu shahar bolalarida mos holda 21,5±0,37, 35,5±0,67 va 6,11±0,29ga teng ekanligi aniqlandi. Demak qishloq bolalari orasida deyarli 20%ga yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bundan xulosa shuki, aynan qishloqda maktab bolalari orasida jarohatlanishning oldini olishga yo‘naltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni nisbatan kuchaytirishni taqozo etadi. Xuddi viloyatdagi



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

kabi shaharda ham bolalarda jarohatlanish o‘rganilgan davrda 2020 yilgacha o‘tib borishi kuzatildi. 2020 yilda esa barcha ijtimoiy guruhlar bo‘yicha jarohatlanish bir muncha kamayish qayd etildi. Shaharda jami bolalarda 2019 yilda jarohatlanish 2016 yilga nisbatan 36%ga, o‘g‘il bolalarda 35%ga va qiz bolalarda 40% oshganligini ko‘rish mumkin. O‘rganilgan yillar davomida bolalar orasida barcha hududlarda ham 2019 yilda uning eng yuqori darajasi kuzatildi va o‘rtacha 36% ni tashkil qildi. Shaharda ham odatdagidek bolalarning yoshlari oshishi bilan jarohatlarnishlarning o‘tib borishi kuzatilib, 15-17 yoshdagilar orasida 6-9 yoshdagilarga nisbatan jami jarohatlanishlar -2.9, o‘g‘il bolalarda-2.6 va qiz bolalarda-1.5 barobarga oshganligi aniqlandi. Bu holatni bolalarning yoshlari oshishi bilan ularning harakat faoliyatlarining o‘tib borishi va ota-onalar nazoratining susayib borishi bilan tushuntirish mumkin.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shahar sharoitida istiqomat qiluvchi bolalarda hayot sifatining tuman va qishloqlarga nisbatan yuqoriligi bolalar orasidagi jarohatlanishlarning sezilarli darajada kamligiga zamin yaratadi. Urganch shahrida har o‘rganilgan 1000 ta bolaga $21,5 \pm 0,37$ ga teng bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Qo‘shko‘pir tumanida $27,9 \pm 0,38$ va Yangiariq tumanida $23,3 \pm 0,43$ ga teng bo‘lib, jarohatlanish mos ravshda 20% va 8,0%ga yuqoriligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich ayniqsa o‘g‘il bolalar orasida sezilarli darajada yuqoriligi qayd etildi va o‘rtacha 38% ni tashkil qildi. Shuningdek yosh o‘sgan bolalarda harakat faoliyatining kuchayishi ham jarohatlanishlar miqdorining ko‘payishiga sabab bo‘lishi tadqiqot davomida aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.Z. Gafarov, V. S. Murugov TRAVMATIZM - PRIORITETNAYA MEDIKO-SOTSIALNAYA PROBLEMA. Kazanskiy meditsinskiy jurnal, Tom 80.- №4 (1999).-S.312-314.
2. Poshataev K.E. Epidemiologicheskie i klinicheskie aspekti cherepno-mozgovoy travmi// Dalnevostochniy meditsinskiy jurnal “Nauka o zdorove”.-2010.-№4.-S.125-128.
3. Serdyukov A.G., Kuznesov S.A., Gusev D.S. Osobennosti mediko-sotsialnix i kliniko-statisticheskoy xarakteristiki bolnix s cherepno-mozgovoy travmoy// Nauki o zdorove .-2012.-№4.-S.141-143.
4. AS Omanova . Domestic Traumatism Among the Population and Children, Medical and Social Aspects. Texas Journal of Medical Science. №15. 2022/12/20. P-160-165
5. Akselrov M.A., i dr. Mediko-sotsialnie aspekti termicheskoy travmy u detey// Nauchno-prakticheskiy jurnal, Vyatskiy meditsinskiy vestnik, 2015.- №4.-S.32-35.
6. IKAbdullayev., A.S. Omanova. MEDICAL AND SOCIAL ASPECTS OF MARITAL TRAUMA AMONG CHILDREN. RESEARCH JOURNAL OF TRAUMA AND DISABILITY STUDIES 2 (9), 59-66
7. Supiev T.K., Nurmaganov S.B., Zikeeva S.K. Travmatizm chelyustno-litsevoy oblasti u detey. Printsipy okazaniya neotlojnnoy pomoshi// Vestnik KazNMU, 2015.-№1.-S.100-103.